
Ilyosbek Inomov: Imtiyozli kreditga zamonaviy uskunalar olingani hisobiga ish unumdorligi oshdi

Ilyosbek Inomov 25 yildan buyon avtomobillarning ballonlarini ta'mirlash bilan shug'ullanadi. Har sohada bo'lgani kabi bu yo'nalishda ham ish unumdorligini oshiruvchi zamonaviy uskunalar ishlab chiqarildi.

"Afrosiyob" mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Sanjarbek Masharipov tavsiyasi bilan tajribali ustaga imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Sohada ishlovchi zamonaviy uskunalar sotib olindi.

Ayni kunlarda, ish hajmi ham samaradorligi ham oshdi. Shuningdek, mijozlarning ko'p vaqt kutib turishlariga ham sabab qolmadi.

Ilyosbek Inomov ikki nafar farzandning otasi. O'g'li maktab o'quvchisi bo'lsa-da, doimo otasiga ko'makchi, hunarning sir-asrorlarini puxta egallamoqda. Tadbirkorning ta'kidlashicha, mazkur hunar orqali har oyda 3-4 mln. so'm daromad topmoqda.

2023-09-14 17:10:47